



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIDA AYOLLAR TIMSOLI

Usmankulova Ezoza

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalqning tarixi, o'tmishi, turmush tarzini ifodalagan, ota-bobolarimiz kelajak avlodga meros sifatida qoldirgan, asrlar davomida sayqallanib, hali-hanuzgacha taraqqiy etishda davom etayotgan xalq og'zaki ijodi va rang-barang janrlarida muhim sanalgan ayollar timsoli haqida mushohada yuritiladi, tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *doston, ayol, adabiyot, Alpomish, Go'ro'gli, Ravshan, Kuntug'mish, Rustamxon, sevgi, botirlik, sabrlilik.*

Xalq og'zaki ijodi-keng tarmoqli bo'lib, omma tomonidan yaratilgan asarlar og'izdan og'izga, qo'ldan qo'lga, ajdoddan avlodga o'tib, rivojlanishda davom etayotgan, ma'lum bir davrning, xalqning ma'naviy merosini, milliy qadriyatlarini o'zida namoyon etuvchi folklor namunalari sanalari. Folklor atamasini ingliz olimi Uilyam Toms 1846-yilda taklif qilgan bo'lib, "xalq donoligi" degan ma'noni bildiradi. Dastlabki vaqtlarda "el adabiyoti", "xalq adabiyoti", "og'zaki adabiyot", "og'zaki ijod" deb yuritib kelingan o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi ilk bor H. Zarif tomonidan qo'llanilib, keng ommalashgan. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi tuzilishi, ko'rinishi, bajaradigan vazifasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko'ra bir qancha tur va janrlarga bo'linadi. Bular:epik turga doston, ertak, afsona, rivoyat, naql, latifa va hakoza; lirik turga alla, bolalar qo'shiqlari; dramatik turga og'zaki drama, qo'g'irchoq o'yin va boshqalar kiradi.

Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodida ayollar timsoli haqida fikr yuritmoqchiman. Bilamizki, o'zbek xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan janr-dostonlarni oladigan bo'lsak, "Alpomish", "Go'ro'gli", "Ravshan", "Kuntug'mish", "Malikayi ayyor", "Rustamxon" va boshqa ko'plab dostonlarda ayollar timsoli keng o'rin olgan.

Masalan, qahramonlik dostoni hisoblangan "Alpomish" ni tahlil qiladigan bo'lsam, sevgi va sadoqatni kuylovchi, xalqning urf-odatlarini o'zida namoyon etuvchi qahramonlik episodir. Dostonda ishtirok etuvchi Oybarchin va Qaldirg'ochoyim obrazlari asarning mazmun-mohiyatini yoritishda muhim sanalgan.

Oybarchin - bu Boysarining qizi, Alpomishning yori. Dostonda bag'oyat mard va dovruyak, suyuqli yoriga sadoqatli qiz sifatida tasvirlangan. Ayniqsa, Toychixon alplari, Surxayil kampirning o'g'illari Barchinga sovchi qo'yganda ularga nisbatan aytgan ushbu jumalari: "meni olar kelmas sening qo'lingdan", "mening to'ram bilsang, Boysinning xoni" deya aytganda to'rasiga vafodorligini ko'rishimiz mumkin. Bu so'zlarni eshitib, 7 alpning kattasi Ko'kaldoshning jahli chiqadi va so'ng Barchin 6 oyga muhlat so'rab shunday deydi:

Saman otli, sarjig'ali bek yigit,
Bir oltoyga sizdan muhlat so'rayin.
Qo'ng'iroq elga arza berib ko'rayin,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Oltoygacha men yo‘liga qarayin,
Kelsa kelar qo‘ng‘irot eldan Alpomish,
Kelmasa, men taqdirimdan ko‘rayin.
. . . Olmadayin so‘lgan gulday tarzim bor,
Mushtiparman, sizga aytar arzim bor.
. . . Muhlat so‘rab turgan menday gajakdor,
Oltoy muhlat bergin, davlatli shunqor.
Bu gap endi Ko‘kaldoshga xush kelar. . .

Yuqoridagi baytlardan ko‘rishimiz mumkinki, Barchin Alpomishdan uzoqda bo‘lishiga qaramay, sevgisiga yetishish uchun harakat qiladi va Qo‘ng‘irot eliga chopar yuboradi.

Ana endi dostonida Boybo‘rining qizi, Alpomishning singlisi Qaldirg‘ochoyim ham asarning g‘oyasini yoritishda yetakchi obrazlardan biridir. Barchin kindik qoni to‘kilgan yurtiga chopar yuborgandan keyin, Boybo‘ri o‘g‘lini qalmoq yurtiga yuborgisi kelmaydi va arzani yashirib qo‘yadi. Bir kuni Qaldirg‘ochoyim Qirqin kanizlari bilan 1 sandiqni ko‘rayotgan mahalda xat topib oladi va bu yangasining arzasi ekanligi ayon bo‘ladi. Shundan so‘ng, “Aka, senga aytaydigan arzim bor”, - deya chechasining oldiga borishga undaydi va ushbu jummalarni aytadi:

. . . Aka, senga aytadigan arzim bor,
Talash bo‘pti biyning qizi- zulfakdor.
. . . Mard yigitning yori talash bo‘lami,
Er yigitning yorin qalmoq olami?
. . . Umid tortib senga arza qilibdi,
Xat ko‘tarib o‘n boybachcha kelibdi.
Anglamay otama xatni beribdi,
Otam xatni bul sandiqqa solibdi.
Endi bilib, singling olib kelibdi,
Qalmoqlardan checham jabr ko‘ribdi.
Aka, aytgan so‘zim og‘ir olmagin,
Narmoda ishini bunda qilmagin. . .

Narmoda- erkak-urg‘ochiligi noma‘lum odam, xunasa, gey.

Ushbu misralar orqali Qaldirg‘ochoyim qizning or-nomusi, iffati muhimligini, birovning unashtirilgan yoriga ko‘z olaytirmaslikni uqtirmoqchi bo‘lgan va akasining yorining oldiga ketishiga sababchi bo‘lgan.

“Kuntug‘mish” dostoni ishqiy-qahramonlik dostoni bo‘lib, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida yetuk asarlardan biridir. Dostonning bosh qahramoni Kuntug‘mish- botir, zukko, vafodor timsol. U 14 yoshga to‘lguncha ilm oladi, 14 yoshdan keyin qilichbozlik, miltiq otish, ko‘pkari chopish va boshqa ko‘plab hunarlarni o‘rganadi. Xolbeka- Shahri Zangar yurtida faoliyat yurituvchi Shoir vazirning qizi bo‘lib, nihoyatda maftunkor, aqlli bo‘lib ulg‘ayadi. U ham 14 ga to‘lgandan so‘ng, go‘zalligi ko‘ngillarni zabt etdi, ovozasi olamga ketdi,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



dong‘i Dog‘istondan o‘tdi. Unga oshib bo‘lib, sovchi qo‘yganlarga shunday shart qo‘ydi: ”Har kim meni olaman deb kelsa, oldiga nard o‘yinini qo‘yaman, o‘ynayman, yutsa tegaman, yutdirsa so‘yaman”. Xolbeka Kuntug‘mishni qanchalik yaxshi ko‘rmasin, bu shart u uchun ham aloqadorligidan Xolbekaning adolatsevarligi namoyon bo‘lgan. Kuntug‘mish bu shartda yutib chiqib, u latofatli yoriga uylanadi.

Xolbeka siymosi dostonida iliqlik bilan tasvirlangan. Qadrli yori bilan bir qancha qiyin sinovlarni yengib o‘tib, axiyri haqiqiy muhabbatga erishadi. Masalan, issiq cho‘lda qolib ketganida oyoqlarida mador qolmay, suvsizlikdan qiynalgan paytda to‘rasiga qarab “Men senga ergasholmayman, biz manzilga yetolmayman, qumda o‘lib qolaman, menga qarab sen ham nobud bo‘lma, sen elga yetib, odamlarga qo‘shilsang, yurtingga borsang, men sendan roziman, zinhor menga qayrilma, orqangga boqmay keta ber, mening kasofatimga shuncha ranjlar ko‘rding, qattiq mashaqqatlar ko‘rding, mening uchun ko‘rding. E mard to‘ram, mendan rozi bo‘l, men ham sendan roziman, ket”, - deyishiga qaramasdan, Kuntug‘mish uni tashlab ketmay, bu sinovdan ham eson-omon qutilib chiqadi va ushbu misralarni keltiradi:

Po‘lat nayza qor ostida yotarmi,
Temir nayzang egovlasang o‘tarmi,
Sening to‘rang nomardlardan emasdir,
Mard o‘g‘lon sevdigin tashlab ketarmi?...
Ilohi kelmasin senga mahosil,
Qaytayin, bo‘lmadi maqsudim hosil,
Yurarga quvvating, holing qolmasa,
Kel, orqamga ko‘tarayin bir fasl.

Endi ayollar timsolini “Ravshan” dostoni misolida tahlil qiladigan bo‘lsam, “Ravshan”- “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlaridan biri. “Ravshan” pok va samimiy muhabbatni kuylovchi, botirlikni ulug‘lovchi asardir. Dostonning bosh qahramoni Ravshan- Go‘ro‘g‘lining nabirasi, Hasanxonning o‘g‘li. U tajribasizligi tufayli turli xil sinovlarga duchor bo‘lishiga qaramay, oxirida sevgilisi Zulxumorga erishadi. Zulxumor obrazi qalpoq tikib, har bozor kuni yigitlarga sotishni rasm qiladi, bozordagi ko‘shkning ustida yuzini ochib o‘tiradi. Qolaversa, Ravshan Zulxumorning visoliga erishganda uning go‘zalligini shunday ta‘riflaydi: “Zulxumorning kamoli, oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi to‘lgan oyday, ikki qoshi hiloli”. Shuningdek, Ravshan otasidan yoriga yetishish uchun ketishga izn so‘rayotganda, Zulxumorning or-nomusini yuksak o‘ringa qo‘yadi, hurmat-e‘tiborga loyiqligini ushbu baytlar bilan mutolaachiga yetkazadi.

Chambil deydi unib-o‘sgan elingni,
Javob ber, otajon, ko‘tar qo‘lingni!
Talab qildim, Shirvon elga, otajon!
Javob bersang, bermasang ham ketaman!
Javob ber, otajon, yorga boraman,
Yor deyman-ku, nomus-orga boraman.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Ota sendan oq fotiha tilayman,
Shirvon elda Zulxumorga boraman.

Demak, dostondagi Zulxumor obrazi go'zalligi bilan birga, or-nomusli, boshiga tushgan ko'rgiliklarga matonat bilan sabr qilib, baxtiga erishgan obrazdir.

Bundan tashqari, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida ham ayollar timsoli keng o'rin olgan. Bibi Hilol, Xoljuvon, Zaydinoy – bunga misol bo'la oladi.

Bibi Hilol- hur tal'atli, maloyika kelbatli, shirin so'zli, jodu ko'zli, zulfi tol-tol bo'lib ketiga tarmashgan, latibasi labiga tushgan, munchoqlari kindikdan oshgan, qoshi qora, zulfi bo'yniga tushgan, kokili o'ziga juda ham yarashgan, bodom qovoq, ko'rganlar bo'lur aftoda. U Ravshanbekka turmushga chiqadi, lekin yori va akasi Gajdumbek Bibi Hilolni keyin olib ketish o'yi bilan o'z yurtlarini ko'rib kelishga ketishganda, xalqda g'alayon ko'tariladi va Bibi Hilolni o'ldirmoqchi bo'ladi. Lekin xizmatkori bilan ketishni o'ziga ep ko'rmay, jonini fido qilishga ham tayyor bo'ladi va shunday deydi: "Men bir xizmatkorim bilan borsam odamlar akam Gajdumbekka sening singling begona odam bilan mingashib keldi, so'ng akamning va yorim Ravshanbekning yuzi tuman bo'lar. Bu bilan borganimdan bormaganim yaxshiroq", - deydi.

Xoljuvon- Go'ro'g'libek tog'asi Ahmadbekning xotini. U o'sh oriq, ranglari sariq, uzun bo'yli, sher o'mganli, qo'lida ko'zasi bor. Uni Rayhon arab o'g'irlab kelganiga 3 yil bo'lganda, qaynisi uni topadi. Ammo ketishni o'ylamay Rayhon arabning qizi Zaydinoyni Ahmadbekka olib borishni iltimos qiladi. Bunga sabab esa shu: Agar sen meni olib ketsang, Yovmitga yetsang, ma'raka majlislarda odamlar "Go'ro'g'libek xo'b ish qilibdi, uch yildan beri Rayhon arab xotin qilib yurgan chechasini olib kelibdi", - deydi. Ushbu so'zlardan ko'rinib turibdiki, Go'ro'g'libek va Ahmadbekning sha'nini, g'ururini o'ylaydi va Rayhon arabdan qizini berib yuborishi orqali undan o'ch oladi va ularga oq yo'l tilayotganda shunday deydi:

Xudo qilgan ikkovingga marhamat,
Uch yil bo'lmay Xoljuvonga qiyomat.
Zaydinoyjon Ahmadbekka omonat,
Omonatga, qaynim, qilma xiyonat!
Yovmit elga boring sog'-u salomat!
Arab qizi Ahmadbekka omonat.

Zaydinoy- yarim belidan pasti uch botmon, yarim belidan yuqorisi ikki botmon. Shirin so'zli qizil yuzli, jodu ko'zli, saraton yulduzli, la'l munchoqli, oydan suluv, oftobday ortiq, oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor, har bir narsa deguday, har bir barno ko'rguday. Qolaversa otasini Go'ro'g'libek yoyi, ya'ni o'limidan saqlab qolgan qizdir.

Barchamizga ma'lumki, ko'plab dostonlarda ayollar mardonavor xarakterga ega va qo'rqmas sifatida tasvirlanadi. Bunga misol sifatida "Malikayi ayyor" ni keltirishimiz mumkin. U "Go'ro'g'li" turkumiga kiradigan dostonlardan biri. Dostonning asosiy mazmun-mohiyati imon-e'tiqod, or-nomus, sabrlilik singari ezgu ma'naviy fazilatlariga boy.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Malika- kuchli, aqlda tengsizdir. U bir qancha murakkab vaziyatlarda topqirligi bilan dushmanlarini yengadi. Dostonning nomidan ham shu narsa a'yonki, Malika juda ayyor obraz hisoblanadi.

Keyingi epos "Rustamxon" dostoni- o'zbek qahramonlik-romantik dostonlari turkumiga kiradi. Dostonda vatanparvarlik g'oyalari ilgari surilgan, mardlik, sof nuhabbat ulug'langan.

Huroyim- Sultonxonning o'rtancha xotini. Sultonxon yoshi ulg'ayib, soqoli oqarib qolganda Huroyim homilador bo'ladi. So'ng Sultonxon 14 yilda Qurudumga ketmoqchi bo'ladi hamda tarxtni Huroyimga topshirib ketadi. Huroyim davlatni adolatli boshqara boshlaydi. Ikki kundosh esa bunga hasad qilib "zamon Huroyimniki bo'ldi", - deydi. Kundoshlarning kasriga turli xil sinovlarga yo'liqadi va Sultonxon unga nisbatan nohaqlik qilishiga qaramay, oxirida uni kechiradi.

Oftoboyim- ajab suratli bir qiz, jamoli kunni xira qilguday, har kim husnini ko'rsa, aqli ketib otdan yiqilib qolguday. U Rustamxonning rafiqasi. Shuningdek, Sultonxon va Huroyimning yarashishiga sababchi bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, o'zbek xalq og'zaki ijodida ayollar timsoli turli xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Sadoqatli, sabrli, go'zal yor, mehribon ona, dovyurak singil va boshqalar. Bu esa madaniyatimizni, ma'rifatimizni yuksaltirishga o'z hissasini qo'shadi, har bir ayol yoki qiz o'zbek xalq og'zaki ijodi orqali o'zida samimiy tuyg'ularni shakllantirishda, bir-biriga qilinaydigan yaxshi munosabatni o'zida mujassamlantirishda qo'lgeladi, albatta!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek folklori [Matn] : darslik / T. Mirzayev, Sh. Turdimov, M. Jo'rayev, J. Eshonqulov, A. Tilavov. -Toshkent: "MALIK PRINT CO" , 2022. -240 b.

2. O'zbek xalq og'zaki ijodi: universitetlarning Filologiya va Jurnalistika hamda pedagogika institutlarining Til va adabiyot fakultetlari uchun o'quv qo'llanma / O. Madayev; mas'ul muharrir; H. Boltaboyev O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. - T. : MUMTOZ SO'Z, 2010. - 228 b.

3. ("Alpomish")- Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti davlat korxonasi -2018. -368 b.

4. Go'ro'g'li [matn] : o'zbek xalq dostonlari -Cho'lpon nomidagi NMIU, 2017. - 448 b.

5. Kuntug'mish. Ravshan: Dostonlar / Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o'g'li; yozib oluvchilar: Muhammadisa Ernazar o'g'li, Hodi Zarif; mas'ul muharrir T. Mirzayev. : "Sharq", 2011. - 368 b.